

**ANTENATAL NOBUD BO'LGAN CHAQALOQLAR TIMUSDAGI
MORFOLOGIK O'ZGARISHLAR**

Eshqobilov Ozodbek Abdisodiq o'g'li

TTA Termiz filiali assestenti

Elektron pochta: ozotbekbestboy@gmail.com

Annattsiya: Homilador ayollarda pielonefrit fonida rivojlangan chaqaloqlarni antenatal o'limi, 1000 ta tug'ruqdan 65 tani tashkil etib, asosan birlamchi tug'ma T limfotsitar immunodefitsitning rivojlanishi, timus va buyrak usti bezining o'zaro integratsiyasini izdan chiqishiga olib kelishi oqibatida, homila ichi infektsiyasidan nobud bo'ladi. Timusning po'stloq qavatida qon quyilishlar, subkapsulyar shishilar, koptokcha soxasi oraliq shishlari, mag'iz qavatida limfotsitlar keskin kamaygan va boshqa turdagi noimmunokompetent xujayralarni ko'payganligi, o'choqli diapedez qon quyilishlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: antenatal o'lim, timus, homiladorlikdagi pielonefrit, homiladorlik, morfologiya.

Muammoning dolzarbligi: Dunyoda reproduktiv yoshdagi ayollarda homiladorlik davrida aniqlangan pielonefrit, jami homiladorlikning 21% da uchraydi. Dunyo bo'yicha, yiliga pielonefrit fonida tug'ilgan chaqaloqlarning o'lim ko'rsatkichi bo'yicha, 28 mln chaqaloqlar nobud bo'ladi.

Homiladorlikdagi pielnefritning uchrash bo'yicha, anemiyadan keyin 2-o'rinda turib, eng ko'p tarqalagan patologiyalar jumlasiga mansubdir, perinatal davrda chaqaloqlar o'limi bo'yicha 1000 ta homiladorlikdan 35-45 tasida bola tashlash, 21 tasida o'lik tug'ilishi, 24 tasida turli xil homila ichi infektsiyasi sababli postnatal davrda ikkilamchi infektsiyalardan nobud bo'lishiga olib keladi. Pielonefrit fonida tug'ilgan chaqaloqlarni 28-31% da immun a'zolarining yetilmaganlik ko'rsatichi yuqori bo'lib, jumladan timusning morfologik chahaligi sabali, tug'ma va orttirilgan immunodefitsitni rivojlanishi va chaqaloqlar o'limi ko'rsatkichi bo'yicha 1000 ta tug'ruqqa o'rtacha 60-70 tani tashkil etadi.

AQSh, Buyuk Britaniya, Yevropa, Yaponiya, Xitoy va boshqa Osiyo davlatlarida reproduktiv yoshdagi ayollar homiladorlik davriga tayyorgarlik va skrining nazorat ostida bo'lishi yuqori darajada yo'lga qo'yilganligi sababli, 1000 ta homiladorlikdan 6-8 xolatda

gestatsion pielonefrit aniqlanadi. Rossiya federatsiyasida homiladorlikdagi pielonefritni rivojlanishi bo'yicha, o'lim ko'rsatkichi bo'yicha 1000 ta tug'ruqdan 7 xolatda letal ko'rsatkich bilan tugallanadi.

Dunyoda eng kam ko'rsatkich Yaponiya va Janubiy Koreya davlatlarida aniqlangan. MDX davlatlarida ushbu ko'rsatkich 1000 ta homiladorlikka o'rtacha 67 tani tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda homiladorlikdagi pielonefrit bilan o'rtacha 3,1 mln ayollar ro'yxatdan o'tgan. Aynan, homiladorlikdagi pielonefrit fonida tug'ilgan va nobud bo'lgan chaqaloqlar timus to'qimasidagi morfologik o'zgarishlar sababali yuzaga keladigan ikkilamchi o'zgarishlar oqibatida, immunodefitsitlarni turli shakllarining rivojlanishi, yuqori o'lim darajasi bilan xarakterlanadi. Jumladan, gestatsion pielonefrit fonida tug'ilgan chaqaloqlar buyrak usti bezining stressor omillarga javob reaksiyasi timus bilan bog'liq integral bog'liqligini izdan chiqishi va homila ichi infeksiyasidan o'lim ko'rsatkichi yuqorligini tasdiqlaydi. 2022 O'zbekiston Respublikasi SSV ma'lumotlari bo'yicha, aynan pielonefrit fonida perinatal davrda jami, 64000 tadan ortiq chaqaloqlar o'limi qayd etilgan. Aksariyat ushbu holatlar bo'yicha aniqlangan klinik anamnestic ma'lumotlarda xomiladorlikdagi infeksiyon kasalliklar sababli rivojlanishi o'rganilgan.

Yuqoridagi epidemiologik ma'lumotlarga asoslanib, ayni tadqiqot ishimiz dolzarbligi va o'z vaqtida tanlanganligini ko'rsatadi. Bu esa, ilmiy tadqiqot ishimizni davlat miqyosida o'ta dolzarb va muximligini, ona bola muxofazasini himoya qilishda eng zaruriy chora tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etib, ayni paytda tadqiqot ishini zaruratini anglatadi.

Tadqiqot maqsadi: Homiladorlikda pielonefrit fonida tug'ilgan va nobud bo'lgan chaqaloqlar timusning morfologik o'zgarishlarni o'rganishdan iboratdir.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi: Antenatal davrda chaqaloqlar o'limining asosiy sababalaridan biri bu homila ichi infeksiyasi bo'lib, etiologik jixatdan onadagi infeksiyon kasalliklar sababli yuzaga keladi. Hali to'liq shakllanmagan timusni xomila ichi rivojlanishining 22-36 haftalik orasida, onadagi infeksiyaga javoban stressor omil deb qabul qilishi, timusning adaptogen funktsiyasini kuchayishi oqibatida, kortizol sintezining oshib ketishi va qon plazmasidagi yuqori kontsentratsiyasi chaqaloqlar tanasida limfotsitlarni muddatdan oldin apoptozga uchratishi oqibatida, immun falajlik yuzaga kelishi va antenatal davrda homilani o'lik tug'ilishiga olib kelishi o'rganildi. Homiladorlikda pielonefrit fonida tug'ilgan va nobud bo'lgan chaqaloqlar timusning morfologik jihatlarini bo'yicha, po'stloq qavat to'rsimon va tutamli qavatlarida chegaralari reliefi o'zgargan,

tutuamli qavati spangiotsitlari kattalashgan, tarkibida lipidli kiritmalarni ko'payishi, to'laonli ko'rinishda bo'ladi. Po'stloq qavati koptokchali sohasi koptokchalarida fokusda giperplaziyaga uchrgan va notekis to'laonlik belgilari aniqlandi.

Xulosa: Mag'iz qavati nazorat guruhi bilan o'xshash bo'lib, asosan, och va to'q sitoplazmali xromofob va xromaffin hujayralardan tuzilganligi aniqlanadi. Homiladorlikda pielonefrit fonida tug'ilgan chaqaloqlar timusda po'stloq qavatning qalinlashganligi, asosan tutuamli soxaning egallagan maydoni kattalashganligi aniqlanib, Natijada, antenatal davrda xomila ichi rivojlanishida timus giperproduksiyasi sababli, timusning muddatdan oldingi involyutsiyasi va chaqaloqni antenatal o'limiga olib kelganligi isbotlandi.